



TABIYIY RESURLARGA EGALIK VA FOYDALANISH HUQUQINING  
IQTISODIY-IJTIMOYIY OQIBATLARI

Fatulloev Dilshod Po'lotovich

TDYU Tabiiy resurslar huquqi mutaxassisligi 1-kurs magistranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada mamlakatimizda tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqining huquqiy asoslari, tartibi hamda bu huquqning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, foydalanish huquqining cheklanishi, tugatilishi va bu jarayonlarning ekologik xavfsizlik hamda davlat manfaatlari bilan bog'liqligi tahlil qilingan. Mavzuni yoritishda amaldagi qonunchilik hujjatlari, xususan Konstitutsiya, Fuqarolik kodeksi, Yer kodeksi hamda sohaga oid maxsus qonunlar asos qilib olingan.

**Kalit so'zlar:** tabiiy resurslar, egalik huquqi, foydalanish tartibi, huquqiy cheklovlar, ekologik xavfsizlik, iqtisodiy-ijtimoiy oqibatlar, mulk huquqi.

**Аннотация:** В данной статье освещаются правовые основы, порядок получения права собственности и пользования природными ресурсами в нашей стране, а также экономическое и социальное значение этого права. Также были проанализированы ограничения, прекращение использования и связь этих процессов с экологической безопасностью и интересами государства. За основу при освещении темы были взяты действующие законодательные акты, в частности Конституция, Гражданский кодекс, Земельный кодекс и специальные отраслевые законы.

**Ключевые слова:** природные ресурсы, право собственности, порядок использования, правовые ограничения, экологическая безопасность, экономико-социальные последствия, право собственности.

**Annotation:** This article covers the legal basis, procedure for the right to own and use natural resources in our country, as well as the economic and social significance of this right. It has also been analyzed the limitation, termination of the right to use and the relationship of these processes to environmental security and the interests of the state. The basis for the coverage of the topic is the current legislative acts, in particular the Constitution, the Civil Code, The Land Code and special laws related to the field.

**Keywords:** natural resources, ownership, procedure for use, legal restrictions, environmental security, economic-social consequences, property rights.

## KIRISH

Tabiiy resurslar har qanday davlat uchun muhim strategik boylik hisoblanadi. Jumladan, O'zbekistonda ham yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi, o'rmonlar, atmosferadagi havo kabi resurslarga egalik va ulardan foydalanish masalasi siyosiy va iqtisodiy barqarorlikning muhim omillaridan biri sanaladi. Bu masala

mamlakatimizning asosiy qonunchilik hujjatlarida, xususan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan.

Konstitutsiyaning 55-moddasida qayd etilishicha, yer va yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar butun xalq mulki — umummilliy boylik hisoblanadi. Ulardan foydalanish faqat oqilona yo'llar bilan amalga oshirilishi, davlat tomonidan muhofaza qilinishi belgilangan. Bu yondashuv tabiiy boyliklar iqtisodiyot uchun nafaqat hozirgi, balki kelajak avlodlar uchun ham manfaatda xizmat qilishi zarurligini ko'rsatadi.

Asosiy qism. O'zbekiston Respublikasi "Davlat mustaqilligi to'g'risida"gi qonunining 7-moddasiga ko'ra, tabiiy resurslar – mamlakat mulki sifatida milliy boylikni tashkil etadi. Bunda ular nafaqat moddiy qiymatga, balki strategik resurs sifatida siyosiy mustaqillikni mustahkamlashdagi roliga ham ega.

Respublikamizda mustaqillik yillarida qabul qilingan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar, xususan:

- "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun,
- "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi qonun,
- "Yer osti boyliklari to'g'risida"gi qonun,
- "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun,
- Yer kodeksi,

ularning har biri tabiiy resurslarga egalik va foydalanish tartibini belgilab beradi. Ushbu qonunlarda resurslardan foydalanishda ekologik xavfsizlik, iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy manfaatlar o'rtasidagi muvozanatni saqlashga urg'u beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar butun xalq mulki ekani, ulardan oqilona foydalanish lozimligi va ularning davlat muhofazasida ekani belgilangan. Bu holat tabiiy resurslar davlatga tegishli bo'lib, ularga egalik qilish huquqi jamiyat manfaatlari asosida tartibga solinishini anglatadi.

Mulkchilik ob'ekti sifatida tabiiy resurslar tarkibiga yer, suv, o'rmon, yer osti boyliklari, shuningdek o'simlik va hayvonot dunyosi kiradi. Ushbu resurslarga egalik huquqi va undan foydalanish tartibi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida aniqlik bilan belgilab berilgan.

Fuqarolik kodeksining 168-moddasiga muvofiq, fuqarolar, yuridik shaxslar hamda davlat mulk huquqining subyektlari bo'lishi mumkin. Shu asosda, O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi qonunining 18-moddasida turli shakldagi xo'jalik yurituvchi subyektlar, fuqarolar va boshqa shaxslar suvdan foydalanuvchilar sifatida qatnashishi mumkinligi ko'rsatilgan. Qonunchilikda nazarda tutilgan holatlarda boshqa tashkilotlar ham suvdan foydalanish huquqiga ega bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida tabiiy resurslardan foydalanish ikki yo'sinda – umumiy va maxsus tartibda amalga oshiriladi. Umumiy tartibda foydalanish fuqarolarning tabiiy resurslardan ruxsatnomasiz, hayotiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida bepul foydalanishini bildiradi. Maxsus tartib esa ishlab chiqarish yoki boshqa faoliyat uchun resurslardan haq evaziga va ruxsatnoma asosida foydalanishni anglatadi.

Fuqarolik kodeksining 164-moddasiga binoan, mulk huquqi egasiga egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqlarini beradi. Bu uchlik element mulk huquqining asosiy mazmunini tashkil qiladi. Biroq ayrim hollarda bu elementlar to'liq bo'lmagan shaklda qo'llaniladi. Masalan, "O'rmon to'g'risida"gi qonun asosida o'rmon resurslaridan foydalanuvchilar ularni tasarruf etish huquqiga ega emaslar, chunki bu huquq davlatga tegishlidir. Ular faqat o'rmondan foydalanish va ma'lum shartlarda egalik qilish huquqiga ega bo'lishlari mumkin.

Yer kodeksining 17-moddasida yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo'lgan huquqlari belgilangan bo'lib, 20-moddada esa bu huquqlar doimiy yoki vaqtincha egalik va foydalanish shaklida ko'zda tutilgan.

Tabiiy resurslardan foydalanishdagi huquqlar resurslardan foydalanuvchi subyektlarga ularni boshqarish imkoniyatini yaratadi. Bu orqali ular resursdan mustaqil foydalana oladi. Bunday yondashuv iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan muhim natijalarga olib keladi. Iqtisodiy jihatdan — resurslardan foydalanish orqali ishlab chiqarish, daromad va bandlik imkoniyatlari yaratiladi. Ijtimoiy jihatdan esa — fuqarolar va xo'jalik yurituvchi subyektlarning tabiiy boyliklardan teng va adolatli foydalanishi ta'minlanadi.

Tabiiy resurslardan foydalanish huquqi bevosita ushbu huquqning doirasi, u bilan bog'liq cheklovlar va huquqiy javobgarlik mezonlari bilan chambarchas bog'liq. Bu huquq doirasining chegaralanishi va tugatilishi ekologik xavfsizlikni ta'minlash hamda resurslardan oqilona foydalanish maqsadida qonunchilik orqali tartibga solinadi.

Xususan, bu boradagi cheklovlar va tugatish tartiblari bir qator normativ-huquqiy hujjatlarda o'z aksini topgan. Masalan, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunning 23-moddasi, "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi qonunning 34-moddasi, "O'rmon to'g'risida"gi qonunning 40-moddasi, shuningdek, Yer kodeksining 42-moddasida resurslardan foydalanish huquqining tugatilishi asoslari va shartlari aniq belgilangan.

Foydalanish huquqining o'zgarishi esa tabiat ob'ektining maqsadli toifasini almashtirish, hududlardan foydalanish tartibini o'zgartirish yoki ularni boshqa toifadagi foydalanuvchilarga berish bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bu esa resurslardan foydalanish tartibining yangilanishi yoki ayrim hollarda ushbu huquqni cheklab qo'yishni talab qiladi.

Masalan, suv resurslaridan foydalanish huquqining bekor qilinishi "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi qonunning 37-moddasida belgilangan. Yerga bo'lgan huquqlarni bekor qilish tartibi esa Yer kodeksining 36-moddasida ko'rsatilgan bo'lib, unda yer uchastkalarini qaytarib olish yoki undan foydalanishni to'xtatish asoslari yoritilgan.

Tabiiy resurslarga egalik va foydalanish huquqi bevosita foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlari bilan uzviy bog'liq. Ushbu huquq egalarining o'z majburiyatlariga rioya etishi resurslarning ekologik barqarorligi, ularni asrash, qayta tiklanishiga imkon yaratadi. Aks holda, huquqiy javobgarlik choralari qo'llanilishi mumkin.

Bu boradagi huquq va majburiyatlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida batafsil yoritilgan. Jumladan, Yer kodeksining 39-42-moddalarida yer egalari, foydalanuvchilar, ijarachilar hamda mulkdorlarning huquq va majburiyatlari aniq ko'rsatilgan. "O'rmon to'g'risida"gi qonunning 21-moddasida o'rmondan doimiy foydalanuvchilarning, 22-moddasida esa vaqtincha foydalanuvchilarning huquqlari va zimmasidagi majburiyatlar belgilangan.



Bunday yondashuv resurslar ustidan nazoratni kuchaytirish, ularni oqilona boshqarish va ekologik qonunlarga amal qilish orqali tabiatni asrashga xizmat qiladi. Shu sababli, foydalanish huquqining cheklanishi va tugatilishi jarayonlari nafaqat huquqiy, balki ekologik-iqtisodiy nuqtayi nazardan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Tabiiy resurslardan foydalanish huquqi qonuniy asoslarda beriladi hamda ekologik xavfsizlik va jamiyat manfaatlari nuqtayi nazaridan zarur hollarda cheklanishi yoki bekor qilinishi mumkin. Ushbu huquqdan foydalanuvchilar o'zlariga yuklatilgan majburiyatlarga rioya qilgan taqdirdagina resurslardan oqilona va samarali foydalanilishi ta'minlanadi. Natijada, tabiiy boyliklardan foydalanish jarayoni huquqiy tartibda boshqarilib, ekologik muvozanat saqlanadi va iqtisodiy-ijtimoiy barqarorlikka erishiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2019. -48 b.
2. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi. 1998 yil 30 aprel.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 1998 yil, 5-6-son, 82 modda.
4. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. - T.: Adolat, 2014. -496 b.